

## **ONA TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YANGICHA METODLARDAN FOYDALANISH**

Niyozova Shalola Nizomiddinovna

Buxoro shahar Olimpiya va milliy sport va turlari bo'yicha Davlat  
ixtisoslashtirilgan maktab internati Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Tel  
nomer 906375755

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy yangicha metodlardan foydalanish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy texnologiyalar, an'anaviy usullar, o'quvchilarning savodxonligini oshirish, germenektiv suhbat, pedagogik va didaktik jihatlar.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanimoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi [1]. Shunday usullardan biri kakografiyadir. Kakografiya so'zi lotincha kakos — yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos — yozmoq so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzattirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan [2]. Rus tilida какофонический, какофония degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz,



nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi [3]. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingen bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqla, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. [2] Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi. Tajribadan ma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardag'i savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas 'ul, daryo kabi so'zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma 'sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O'zbek tilining imlo qoidalari"dagi "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So 'zlarni o 'qing, xato yozilgan o 'rinlarni topib, o 'zbek tilning imlo qoidalariiga mos ravishda ularni to 'g'riling va daftaringizga ko 'chiribyozing. Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.

Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;

O'quvchilar ona tilidan olingen bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;



Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tili fanlarini o'zlashtirishda o'quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar, boy tajribalar va qiziqarli o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali kutilgan natijalarni olish mumkin.

O'quvchilarning o'z fikrini yozma bayon qilishida ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi.

Bunda:

- fikrning mantiqiy izchiklikda ifodalanganligini aniqlash;
- tasvirining mavzuning muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;
- imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash asosiy omillar hisoblanadi,

Demak, yozma nutq malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zero, maktab ona tili ta'limining bosh maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakilantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli usullar orqali yozma malakalarini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos o'rni bor. O'quvchilarda yozma nutq malakalarini oshirishda «Eslab qol», «Xato top», «Izoh ber», "Davom ettir», «Tinish belgini qo'ying», «Jumlanı to'g'ri tuz», «Donolar bisotidan» kabi ta'limiy o'yinlardan unum foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. «Xato top» o'yini. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib ishlasa maqsadga muofiq bo'ladi. Har bir guruhga xato yozilgan so'zlar berilgan matnlar tarqatildi. Matn tanlashda o'tilgan mavzuni inobatga olish kerak. Masalan : «Uyushiq bo'laklari» , «Undalmalar» yoki «Unli tovushlar» mavzulari asosida matnlar tayyorlash mumkin. Guruhlar xato yozilgan so'zlarni yoki tinish belgilarini aniqlaydilar. Belgilangan vaqtadan so'ng marnlar o'zaro almashinib, guruhlar o'zaro xatolarini ko'rib chiqadilar.[4] Qaysi guruh qanday natijaga erishganini ekranda berilgan to'g'ri matn orqali bilib oladilar. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yordam beradi. Darslarni musobaqa tarzida tashkil etilganda bu o'yinda foydalanish mumkin. «Izoh ber» o'yini. Bu o'yinda «Dam olish daqiqasi»da foydalanish mumkin. Oq qog'ozda boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki ma'nosi qiyin so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar yozib



qo'yilib, sinf taxtasiga ilinadi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, so'zlarning izohini yozadilar. Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi. Darsning aralash turlarida, takrorlash darslarida bu ta'limiy o'yindan unumli foydalanish mumkin. Musobaqa usulda tashkil qilish yaxshi samara beradi. «Jumlani to'g'ri tuz» texnologiyasi. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatish hamda yozma va og'zaki nutqni ravon va chiroyli bo'lishiga erishish asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchi jumlalar chalkash bo'lgan gaplarni proyektor orqali ekranda namoyish qiladi va o'quvchilar jumlalarni to'g'irlab yozadilar. Masalan:

Mashina chang ko'tarildi yurib ketgach, orqasidan.

Mashina yurib ketgach, orqasidan chang ko'tarildi.

Ba'zi she'rlardagi jumlalarda ro'y bergan o'zgarishlar she'riy qofiya yoki ohangdorlik talabi ekanligi ham inobatga olinib, o'quvchilarga tushuntiriladi. «Ma'nodoshini top» o'yini. Bunda oq qog'oz va markerdan foydalanib o'yin tashkil qilinadi. O'quvchilar sinf taxtasida navbat bilan oq qog'ozdan berilgan so'zning ma'nodoshini topadi. [4]

Masalan:

Yozuvchi - adib, muallif, avtor.

Qadimi - ko'hna, osori- atiqa, eski, azaliy.

Bajarmoq - ijro qilmoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqmoq.

Yuz - aft, bashara, chehra, oraz.

Bunda o'quvchining so'z boyligi oshadi. Yozma nutqda takroriy g'arizliklarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatiladi. Nutqning go'zal bo'lishiga e'tibor qaratiladi. So'zni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi. «So'zga so'z» o'yini. Bu usulda qarama- qarshi so'zlarni o'zaro keltirish bilan yoki so'zning oxirgi harfiga so'z topish kabi yo'l bilan tashkil qilinadi.

### **Xulosa:**

Ona tili fanidan dars jarayonlarida o'quvchining yozma savodxonligi, imlo qoidalarini mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqning rivojlanganligini hamda husnixat bilan yozishini inobatga olib, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish kelajakda yetuk intellectual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rasulova, R. B. (2020). Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatini oshirishda pedagogik texnologiyalar.[1]
2. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'linda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari.[2]
3. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimai holini o 'rgatish xususida.[3]
4. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.[4]

